

“O‘zavtosanoat” AJ tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-22-son Farmon topshiriqlari ijrosi bo‘yicha

MA‘LUMOT

T/r	Topshiriq mazmuni	Mas’ul ijrochilar	Ijro muddati	Ijro holati
1.	<p>16 (v) - band. Quyidagilar: (v) islohotlar dasturlari ijrosi va belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishilishi uchun mas’ul rahbarlar har chorak yakuni bo‘yicha islohotlarning ijro holati va natijadorligi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berib borsin.</p>	<p>Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari</p> <p>Barcha boshqarma, tarkibiy tuzilma va korxonalar rahbarlari</p>	<p>Har chorak yakunida</p>	<p>Bajarilmoqda. Islohotlar dasturlari ijrosi va belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishilishi uchun mas’ul rahbarlar belgilab olindi. 2026-yil 2-martda 12-01-10-09-son boshqaruv majlis bayoni tasdiqlandi. Bayon bilan topshiriqlar ijrosini amalga oshirish bo‘yicha 1-ilovaga muvofiq “Yo‘l xarita”, 2-ilovaga muvofiq mas’ul ishchi guruh tarkibi hamda 3-ilovaga muvofiq kunbay kalendar jadvallar tasdiqlandi. Bayonning 2-ilovasida “O‘zavtosanoat” AJ Boshqaruvi raisi rahbarligida, Farmonda belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlashga ishchi guruh tarkibidagi mas’ul rahbarlarga shaxsiy javobgarlik yuklatildi. Islohotlar dasturlarining ijro holati va natijadorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritilishi ta’minlanadi.</p>

T/r	Topshiriq mazmuni	Mas'ul ijrochilar	Ijro muddati	Ijro holati
2.	<p>19 (g) - band. Quyidagilar: (g) davlat hokimiyati organlari, vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va “Yuksalish” harakatining Davlat dasturi ijrosini o‘rganib borish bo‘yicha faoliyatiga har tomonlama ko‘maklashib borsin.</p>	<p>Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari</p> <p>Barcha boshqarma, tarkibiy tuzilma va korxonalar rahbarlari</p>	Har chorak yakunida	<p>Bajarilmoqda. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va “Yuksalish” harakatiga Davlat dasturidagi topshiriqlar ijrosi bo‘yicha har tomonlama ko‘maklashib borish maqsadida 2026-yil 6-martda 12-04SI-25-0371-son xat bilan ma‘lumotlar yuborildi.</p>
3.	<p>22-band. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsan javobgar etib vazirlik va idoralar rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.</p>	<p>Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari</p> <p>Barcha boshqarma, tarkibiy tuzilma va korxonalar rahbarlari</p>	Har chorak yakunida	<p>Bajarilmoqda. Topshiriq ijrosi bo‘yicha 2026-yil 27-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son Farmoni ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi 16-031-son buyruq va 2026-yil 2-mart sanasida Jamiyatning 12-01-10-09-son boshqaruv majlis bayoni tasdiqlandi. Bayon bilan topshiriqlar ijrosini amalga oshirish bo‘yicha 1-ilovaga muvofiq “Yo‘l xarita”, 2-ilovaga muvofiq mas’ul ishchi guruh tarkibi hamda 3-ilovaga muvofiq kunbay kalendar jadvallar qabul qilindi. Bayonning 2-ilovasida “O‘zavtosanoat” AJ Boshqaruvi raisi rahbarligida, Farmonda belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlashga</p>

T/r	Topshiriq mazmuni	Mas'ul ijrochilar	Ijro muddati	Ijro holati
				ishchi guruh tarkibidagi mas'ul rahbarlarga shaxsiy javobgarlik yuklatildi.
4.	<p>2-ilova 6.1-band. “Invest.gov.uz” platformasini takomillashtirish. ISSV tomonidan tasdiqlangan shaklga asosan Brownfield/Greenfield loyihalarini “Invest.gov.uz” platformasiga kiritishni ta'minlash.</p>	<p>Boshqaruvi raisi o‘rinbosari Departament direktori</p>	<p>2026-yil 1-mart</p>	<p>Bajarilmoqda. Belgilangan shaklga asosan tahliliy ma'lumotlar “Invest.gov.uz” platformasiga ISSV bilan birga kiritish choralari ko‘rilmoqda.</p>
5.	<p>4-ilova 1-band. Atmosfera havosini zararlantirmaydigan va ekologik toza avtomobillarni sotib olish uchun aholiga qulay sharoitlarni yaratish. 1. Elektromobillarni sotib olish uchun 16 foizgacha stavkada bank avtokreditlarini adolatli ajratishni yo‘lga qo‘yish. 2. Elektromobillarni sotib olish uchun ajratiladigan bank kreditlari foizlarining oshgan qismini tijorat banklariga Davlat byudjeti hisobidan qoplash tartibini joriy etish.</p>	<p>Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari Boshqarma boshlig‘i</p>	<p>2026-yil 1-sentabr</p>	<p>Bajarilmoqda. Atmosfera havosini zararlantirmaydigan va ekologik toza elektromobillarni sotib olish uchun aholiga qulay foiz stavkada bank avtokreditlarini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Bojxona qo‘mitasi bilan birga ajratish choralari ko‘rilmoqda.</p>

T/r	Topshiriq mazmuni	Mas'ul ijrochilar	Ijro muddati	Ijro holati
6.	<p>4-ilova 3-band. Ekspluatatsiya muddati o'tgan avtomashinalarning utilizatsiyasini tashkil etish va uning komponentlarini qayta ishlash amaliyotini yo'lga qo'yish.</p> <p>1. Ekspluatatsiya muddati o'tgan avtomashinalarni qabul qilib oluvchi korxonalar faoliyatini tashkil etish, shu jumladan Trade-in dasturi orqali amalga oshirish mexanizmlarini belgilash.</p> <p>2. Ekspluatatsiya muddati o'tgan avtomashinalarni topshirishni rag'batlantirish, shu jumladan, avtokredit foizining bir qismini qoplab berish amaliyotini yo'lga qo'yish.</p>	<p>Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari</p> <p>Boshqarma boshlig'i</p>	<p>2026-yil 1-iyun</p>	<p>Bajarilmoqda. Ekspluatatsiya muddati o'tgan avtomashinalarning utilizatsiyasini tashkil etish va uning komponentlarini qayta ishlash amaliyotini joriy etish ishlari ko'rilmogda.</p>
7.	<p>5-ilova 8-band. Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiya holatlarining oldini olish bo'yicha yangi tizim joriy etish.</p>	<p>Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari</p> <p>Boshqarma boshlig'i</p>	<p>2026-yil 1-mart</p>	<p>Bajarilmoqda. "O'zavtosanoat" AJda korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiya holatlarining oldini olish bo'yicha yangi tizim joriy etish uchun 2026-yil davomida jamiyatda komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha</p>

T/r	Topshiriq mazmuni	Mas'ul ijrochilar	Ijro muddati	Ijro holati
	<p>1. 2026-yil davomida quyidagi davlat organlari va tashkilotlarida komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha o'rinbosarlar faoliyatini yo'lga qo'yish:</p> <ul style="list-style-type: none"> – Sog'liqni saqlash vazirligi; – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi; – ... ; – “O'zavtosanoat” AJ. <p>2. Komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha o'rinbosarlar faoliyatini samarali tashkil etish bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy masalalarni hal etish.</p>			o'rinbosar faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadida tegishli idoradan ko'rsatma va nomzod kutilmoqda.
8.	<p>6-ilova 280.2-band. Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan barcha turdagi ichki buyruq va qarorlarni (shu jumladan shaxsga doir ma'lmuotlarni egasizlantirilgan tarzda), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror, Farmon va farmoyishlari bilan tashkil etilgan</p>	<p>Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari</p> <p>Boshqarma boshlig'i</p>	2026-yil 1-aprel	<p>Bajarilmoqda. Topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida “Unicon-soft” MChJ tomonidan “O'zavtosanoat” AJning edo.ijro.uz tizimiga tegishli o'zgartirishlar kiritilmoqda. Ushbu o'zgartirishlar kiritilgandan so'ng “O'zavtosanoat” AJga tegishli ichki buyruqlarni “E-qaror” tizimiga o'z vaqtida kiritish ta'minlanadi.</p>

T/r	Topshiriq mazmuni	Mas'ul ijrochilar	Ijro muddati	Ijro holati
	barcha komissiya va kengashlarning bayonnomalarini qog'oz shaklda qabul qilishni bekor qilib, majburiy tartibda "E-qaror" tizimi orqali qabul qilish amaliyotini yo'lga qo'yish (qonuchilikka muvofiq davlat siri bilan bog'liq masalalaridan tashqari)			